



PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR DOIRASIDA O'SMIRLIK DAVRINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi

TAFU "Psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7930135>

ARTICLE INFO

Received: 01st April 2023

Accepted: 14th April 2023

Online: 25th April 2023

KEY WORDS

O'smir, o'smirlar psixologiyasi, mantiqiy fikrlash, ijodkorlik, ijodkor o'smirlar, ta'lim-tarbiya, kreativ tafakkur, individuallik

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlari hamda o'smirlik davri psixologiyasida ijodiy qobiliyat muammolari turli psixolog olimlarimiz tomonidan nazariy yondashuvlar asosida tushuntirib berilgan. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy dinamika paydo bo'lgan muammolarni muvaffaqiyatli hal qila oladigan va o'z xatti-harakatlarini optimal tarzda o'zgartira oladigan ijodiy shaxsga bo'lgan talabni belgilaydi. Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy ta'lim tizimining yangilanishi har bir bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o'smirlarni ta'lim faoliyatining faol subyekti sifatida shakllantirish uchun psixologik shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etadi. Maqolada o'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlari psixologik tadqiqot natijalari asosida tahlil qilindi.

KIRISH (INTRODUCTION).

Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy dinamika paydo bo'lgan muammolarni muvaffaqiyatli hal qila oladigan va o'z xatti-harakatlarini optimal tarzda o'zgartira oladigan ijodiy shaxsga bo'lgan talabni belgilaydi. Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy ta'lim tizimining yangilanishi har bir bolaning ijodiy shaxsini rivojlantirish, o'quvchini ta'lim faoliyatining faol subyekti sifatida shakllantirish uchun psixologik shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan, ta'lim jarayonining barcha subyektlarida ijodkorlikni samarali rivojlantirishning dolzarb zarurati va ta'limning an'anaviy paradigmasiga asoslangan o'quv amaliyotining haqiqiy holati, shuningdek, ilmiy bilim darajasi o'rtasida qarama-qarshilik mavjud.

O'qituvchi va tarbiyachi uchun bolalarning o'smirlik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtayi nazaridan ham, pedagogik nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Bu davrni biz yana o'tish davri ham deb ataymiz. O'smirlik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o'z ichiga qamrab oladi, ya'ni bu yosh oralig'i 5-8 sinfga to'g'ri keladi. O'smir o'quvchilarning ta'lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib



chiqadi. Kichik va katta yoshdagi maktab o'quvchilariga qaraganda o'smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko'p qiyinchiliklar bo'ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda qiyin kechadi. Bu jarayon o'smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo'lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o'zgarishi hamda hayot sharoitining o'zgarishi bilan bog'liqdir [2].

Bu davrda o'smirlarning o'z shaxsiy fikrlari paydo bo'ladi. Ularda o'z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo'yicha o'smirlarning psixik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlari bilan tug'iladigan ehtiyojlar bilan bu ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir. Qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotini, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik xususiyatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilishdan iboratdir. Shundan keyin psixik taraqqiyotning yuksakroq bosqichiga o'tiladi. Bola boshlang'ich sinfni tugatgach, uning o'rta maktabda o'qishga o'tishi hayotida burilish davri hisoblanadi. O'smirlarning yangi ijtimoiy jihatdan tashkil topgan va rang-barang faoliyatni uning psixologik hamda shaxsning tarkib topishiga asos, sharoit va vosita sifatida xizmat qiladi [6].

Psixologlarning fikricha, yosh psixologik xususiyatlari faqatgina yolg'iz biologik jihatidan yetilishi va taraqqiyot natijasi bo'lmay, balki, bolaning ijtimoiy hayot sharoitlari va faoliyatlarining o'zgarishi hamda bu jihatdan yangi ijtimoiy omillarning paydo bo'lishi natijasida o'smirning taraqqiyotiga va unga beriladigan maktabdagi ta'lim va tarbiya berishni aniq tashkil qilish o'smirlarning konkret hayot sharoitlari va faoliyatning mahsuli deb qarab bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy sharoitlar rolini konkret hayot sharoitlari va faoliyatlarining roliga almashtirib bo'lmaydi. Mana shu yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, o'smirning yoshi va uning xususiyatlari ahamiyatli kasb etmaydi. Bu farqlarni konkret ijtimoiy omillarning ta'siri bilan va o'smirlarga beriladigan turli ta'lim va tarbiya sharoitlarining ta'siri bilan tushuntirish mumkin. Taraqqiyotning asosiy yo'nalishi bolaning o'smirlik davridagi taraqqiyotining asosiy xarakteristikasini ajratish mumkin.

O'smirlik davrida nutqning rivojlanishi bir tomondan so'z boyligini oshishi hisobiga bo'lsa, ikkinchi tomondan tabiat va jamiyatdagi narsa voqea va hodisalarning mazmun mohiyatini anglashlari hisobiga bo'ladi. Bu davrda o'smir til yordamida atrof-borliqni aks ettirilishi bilan bir qatorda inson dunyoqarashini ham belgilab berish mumkinligini his qila boshlandi. Aynan o'smirlik davridan boshlab, inson nutq bilish jarayonlarining rivojlanishini belgilab berishini tushuna boshlaydi. O'smirni ko'pincha muomalada so'zlarni ishlatish qoidalari: "qanday qilib to'g'ri yozish kerak?", "qanday qilib yaxshiroq aytish mumkin?" kabi savollar juda qiziqtiradi. O'smirlar maktabdagi o'qituvchilar, kattalar, ota-onalar nutqidagi kamchiliklarga, kitob, gazeta, radio va televideniya diktorlari xatolariga tez e'tibor beradilar. Bu holat o'smirning bir tomondan o'z nutqini nazorat qilishga o'rgatsa, ikkinchi tomondan kattalar ham nutq qoidalari buzilishi mumkinligini bilishlariga va o'zida mavjud xatoliklarni birmuncha barham toptirishlariga olib keladi. U endi o'z nutqida yosh bola singari emas, balki, katta odamlardan so'zlarni tanlashga harakat qiladi. Nutq madaniyatini egallash borasida o'smir uchun o'qituvchi, albatta, namuna bo'lishi shartdir. Aynan maktab ta'limi o'smir bilish jarayonlarining rivojlanishi jihatidan asosiy omil bo'lib xizmat qiladi [9].



Maktabdagi o'quv jarayonlarining to'g'ri tashkil etilishi va amalga oshirilishi bilan o'smir tafakkurining to'g'ri rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Tafakkurning rivojlanishidagi ushbu harakat bu o'smirning muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirilishi ehtiyoj va intilish hisoblanadi. O'smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o'quvchilar atrof-olamdagi bog'lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o'smirning bilishga bo'lgan qiziqishida progress sodir bo'ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning ta'sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyat paydo bo'ladi. Maktabda o'qitiladigan fanlar o'smir uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo'lib xizmat qiladi. J.Piajening ta'kidlashicha, "Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri - til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi". Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

11-12 yoshdan boshlab o'smir endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. O'smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o'rgana boshlaydi. O'smir tafakkurning nazariy darajaga qanchalik tez ko'tarila olishi, o'quv materiallarini tez va chuqur egallashi uning intellektining ham rivojlanishini belgilab beradi. Tafakkur atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, ijtimoiy-sababiy bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir. O'smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik o'ta qiziquvchanlik hamda atrofdagilarga o'z layoqatlarini namoyish etish, shuningdek, ularda yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi. O'smirning kattalarga beradigan savollari mazmunli, mulohazali va aynan o'sha masala doirasida bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar turli-farazlarni keltira oladilar, taxminiy fikr yuritib, tadqiqot o'tkaza oladilar hamda ma'lum bir masala bo'yicha muqobil variantlarni taqqoslay oladilar. O'smir tafakkuri ko'pincha umumlashtirishga moyil bo'ladi.

Amaliy tafakkur tizimiga quyidagi aqliy sifatlarni kiritishimiz mumkin:

- tadbirkorlik;
- tejamkorlik;
- hisob-kitoblilik;
- yuzaga kelgan muammolarni tez yecha olishlik va boshqalar.

Ko'rsatilgan barcha sifatlarni mavjud bo'lgan taqdirdagina o'smir amaliy

tafakkurini rivojlangan deb hisoblash mumkin. Bu sifatlarni 1-sinf danoq rivojlantira borish nihoyatda muhim. O'smirlik davrida ishbilarmonlik sifatini o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishni yo'lga qo'yishi umumiy foydali tadbirkorlik ishlarida ishtirok etishi orqali rivojlantirish mumkin. Bu borada o'smir ijrochi rolda emas, balki, boshqaruvchi, mustaqil yo'l tanlovchi va tadbirkorlik munosabatlarida o'zi ishtirokchi bo'lgan taqdirdagi rivojlanish amalga oshishi mumkin. Bu yoshda tadbirkorlikni rivoltirishda ko'proq mustaqillikning berilishi o'smir amaliy tafakkurining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [10].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (METHODS).

O'smir o'quvchilarni ta'lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi.



O'smir yoshdagi bolalarda tejamkorlikni rivojlantirish aqlning boshqa sifatlariga nisbatan osonroq kechadi, buni ko'proq ularni qiziqtiradigan narsalarga mustaqil ravishda hisob-kitob qilib borish orqali amalga oshirish mumkin. O'smirlarda yuzaga kelgan muammolarni tez va operativ holda yechish malakasini shakllantirish birmuncha qiyinroq kechadi. Albatta, bu bolaning temperamentiga ham bog'liq. Barcha o'smirlarni ham tez harakat qilishga o'rgatish mushkul, lekin ularni biror muammo yuzaga kelishi bilan orqaga chekinmay, zudlik bilan yechishning umumiy qoidalariga o'rgatib borish mumkin [45].

Ijodkorlik yangi tadqiqot predmeti emas. Inson qobiliyatlari muammosi har doim odamlarda katta qiziqish uyg'otgan. Holbuki, ilgari jamiyatda kishilar ijodini o'zlashtirishga alohida ehtiyoj bo'lmagan. Iste'dodlar o'z-o'zidan paydo bo'lib, o'z-o'zidan adabiyot va san'at durdonalarini yaratdi, ular ilmiy kashfiyotlar qiladilar, ixtiro qildilar va shu bilan rivojlanayotgan insoniyat madaniyatining ehtiyojlarini qondirdilar. Bizning davrimizda vaziyat tubdan o'zgardi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida hayot rang-barang va murakkablashib bormoqda. Bu esa odamdan qolip bo'lmagan, odatiy harakatlarni, balki harakatchanlikni, fikrlashning moslashuvchanligini, tez yo'naltirilganligini va yangi sharoitlarga moslashishini, katta va kichik muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni talab qiladi. Insoniyat tomonidan to'plangan barcha madaniy qadriyatlar odamlarning ijodiy faoliyati natijasidir [13].

Ijodkorlik - bu o'smirlarning aqliy faoliyatining mazmunli shakllaridan biri bo'lib, uni individuallikni rivojlantirish, yangi turmush sharoitlariga barqaror moslashishni ta'minlash, stressli vaziyatlarni yengish uchun zarur kuch zaxirasi va haqiqatga faol ijodiy munosabat sifatida qaralishi mumkin. Bu ijodiy faoliyat L.S.Vigotskiyning fikriga ko'ra, insonni kelajakka qaraydigan, uni yaratadigan va hozirgi zamonni o'zgartiradigan mavjudotga aylantiradi deb aytib o'tgan.

MUHOKAMA (DISCUSSION).

L.S.Vigotskiy ta'kidlaganidek, tasavvurning ijodiy faoliyati insonning oldingi tajribasining boyligi va xilma-xilligiga bevosita bog'liqdir. Tajriba qanchalik boy bo'lsa, uning tasavvuriga ega bo'lgan material shunchalik ko'p bo'ladi.

Amalga oshirilishi mumkin bo'lgan pedagogik xulosa, agar biz uning ijodiy faoliyati uchun yetarlicha mustahkam poydevor yaratmoqchi bo'lsak, o'smirning tajribasini kengaytirish zarur. Tasavvurni rivojlantirish nafaqat aqlni, konsenratsiyani sezilarli darajada oshiradi - bu o'smirlik davrida hayotdagi nizolarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun juda muhimdir [12].

J.Gotzel va F.Jekson yuqori darajada o'rganadigan bolalarni o'rganishda ijodkorlik sohasida juda ko'p tajovuzkorlik sifatleri qayd etilgan. Fazilatlar ro'yxatida asosiylari ikkitasi: optimizm va hukmronlik qilish istagini ko'rishimiz mumkin.

Ijodiy qobiliyatlar insonning integratsiyaviy sifatida qaraladi, uning faoliyatida samarali o'zgarishlarni ta'minlaydi; vaziyatga bog'liq bo'lmagan harakatlarni amalga oshirish qobiliyati, ijodkorlikning asosiy komponenti, insonning o'z individualligini anglash imkoniyati sifatida o'rganib chiqishni talab etadi. Chet el psixologiyasida ijodkorlik ko'pincha, ijodiy fikrlash bilan belgilanadi. Shunday qilib, J.P.Gilford ijodkorlikni aqlni mustaqil omil deb hisoblaydi va divergensiya operatsiyasini transformatsiya va implikatsiya operatsiyasi bilan



birga umumiy ijodiy qobiliyat sifatida ijodkorlikning asosi deb biladi. Ijodiy fikrlashning bir qismi sifatida ichki motivatsiyani shakllantirish va mustahkamlash bo'yicha tadqiqotlar R.J.Sternberg, T.I.Lubart tomonidan o'rganilgan. Ijodiy qobiliyatlarning mohiyatini aniqlab, shuni ta'kidlaymizki, o'rganilayotgan hodisa inson qobiliyatlariga taalluqlidir, chunki faqat odam yangi va o'ziga xos narsalarni mazmunli yaratishi mumkin. Ijodkorlik umumiy qobiliyatlarga ham tegishli bo'lishi kerak [6].

Mamlakatimiz psixologiyasida ijodiy jarayon muammolari keng ko'lamda o'rganib chiqilgan. Ayni paytda tadqiqotchilar ijodiy shaxsni tasniflovchi integral ko'rsatkichlarni izlash borasida keng faoliyat olib bormoqdalar. Bu ko'rsatkich qandaydir intellektual va motivatsion omillar uyg'unligi kabi aniqlanishi mumkin (intellektual faollik D.B.Bogoyavlenskaya yoki bo'lmasa fikrlashning shaxsiy imkoniyatlari va uzluksiz protsessual birlik sifatida va umuman ko'pincha ijodiy fikrlash sifatida o'rganiladi (A.V.Brushlinskiy) [13].

Layoqatlilik, qobiliyatlilik, iqtidorlilik va ijodiy fikrlash muammolarini ishlab chiqishda psixologlardan B.G.Teplov, S.L.Rubinshteyn, B.G.Ananev, N.S.Leytes, V.A. Kruteskiy, A.G.Kovalev, K.K.Platonov, A.M.Matyushkin, V.D.Shadrikov, Yu.D.Babaeva, V.N.Drujinin, I.I.Ilyasov, V.I.Panov, I.V.Kalish, M.A.Xolodnaya, N.B.Shumakova, V.S.Yurkevich va boshqalar ulkan hissa qo'shdilar [15].

NATIJALAR (RESULTS).

O'smirlik davri ko'plab tadqiqotchilar tomonidan intellektual va shaxsiy rivojlanishdagi tub o'zgarishlar davri sifatida tavsiflanadi. Bu individuallikni shakllantirish, faollikni oshirish, aqliy jarayonlarni intellektuallashtirish va individuallashtirish davridir. Yoshning ijodiy namoyon bo'lishi: moyilliklarning kengligi, o'zini o'zi tasdiqlashga intilish, imkoniyatlarning yangi darajasi, turli xil faoliyat turlariga moyillik bilan ajralib turadi. O'smirlik davrida shaxs ko'plab yangi ziddiyatli vaziyatlarga duch keladi. O'zi va atrof-muhit haqidagi g'oyalarning noaniqligi, sodir bo'layotgan voqealar to'g'risida har doim ham va etarli darajada adekvat mulohazalar emas, o'smirni dunyoni, undagi o'rnini tushunish va qabul qilishning yangi usullarini izlashga majbur qiladi. Bularning barchasi uning ijodiy salohiyatini rag'batlantiradi va faollashtiradi.

Mazkur yuqoridagi mulohazalarga tayangan holda, tadqiqotimizda **"Kreativ tafakkur darajasini aniqlash"**, metodikasining modifikatsiyalangan varianti sinaluvchilarda olindi. Sinaluvchilarimizning umumiy soni 100 ta bo'lib, ular mos ravishda maktabda tahsil olish muddati tafovutiga ko'ra 2 ta (6 va 7-sinf o'quvchilari), jins tafovuti bo'yicha esa 2 ta katta guruhga, ya'ni o'g'il bolalar va qiz bolalar guruhlariga bo'linib olindi.

Ontogenezda ijodkorlikning rivojlanishiga oid nuqtai nazarlardan biri ijodkorlikning o'smirlik davrining sezgirligini tasdiqlaydi. L.M.Petrovaning so'zlariga ko'ra. 13-14 yoshli o'smirlarda ijodkorlik 9-10 yoshli bolalarga qaraganda yuqoridir. O'smirlik davrida ravonlik va majoziy elementlar va ta'sirlarni yaratishda qulaylik markaziy qobiliyatga aylanadi. Og'zaki ijodkorlikning pastki tuzilishi ham o'zgarishlarga duch keladi, ammo asosiy element semantik ta'sirlarni yaratishda ravonlik bo'lib qoladi. O'smirlik davrida semantik munosabatlarni yaratish uchun bu qobiliyatga moslashuvchanlik qo'shiladi.

1-jadval

Sinaluvchilarning sinf bo'yicha farqlari



Sinfi	Son (ta)	Foiz (%)
6-sinf o'quvchilari	71	71,0%
7-sinf o'quvchilari	29	29,0%
Jami:	100	100,0%

Jadvaldan ko'rinadiki, 6-sinf o'quvchilari 71 ta, 7-sinf o'quvchilari esa, 29 ta bo'lib, mazkur respondentlar umumiy o'rta-ta'lim maktabida ta'lim oluvchi o'smir o'quvchilar ekan. Ularning foiz bo'yicha tahlili quyidagi rasmda o'z ifodasini topgan.

2-jadval

"Shaxs ijodkorligini o'rganish" metodikasining tavsiflovchi statistikasi

Metodika shkalasi	Min	Max	Summa	O'rt.qiy mat	Std. Og'ish	Assimetriya	Eksess
Tavakkalchilik	5,00	24,00	1334,	13,34	4,28	,227	-,221
Qiziquvchanlik	6,00	28,00	1235	12,35	4,43	,769	,912
Murakkablik	6,00	24,00	1523	15,23	4,06	,564	-,380
Tasavvur	2,00	26,00	1496	14,96	4,73	-,054	,176

Predmetli tafakkur shkalasi bo'yicha minimal qiymat 2 ballni, maksimal qiymat 13 ballni tashkil etib, o'rtacha qiymat 6.73 ni, standart og'ish 2.41 ballni, simvulli tafakkur shkalasi bo'yicha minimal qiymat 0 ballni, maksimal qiymat 15 ballni tashkil etib, o'rtacha qiymat 6.80 ni, standart og'ish 2.42 ballni, eksess 1,078 chap tarafga maxfiy og'ishni ko'rsatdi. Belgili tafakkur shkalasi bo'yicha minimal qiymat 2 ballni, maksimal qiymat 13 ballni tashkil etib, o'rtacha qiymat 6.91 ni, standart og'ish 2.25 ballni, obrazli tafakkur shkalasi bo'yicha minimal qiymat 0 ballni, maksimal qiymat 10 ballni tashkil etib, o'rtacha qiymat 6.60 ni, standart og'ish 2.15 ballni, kreativli tafakkur shkalasi bo'yicha minimal qiymat 2 ballni, maksimal qiymat 12 ballni tashkil etib, o'rtacha qiymat 6.73 ni, standart og'ish 2.20 ballni tashkil etdi.

3-jadval

3. Tafakkur va kreativlik testi metodikasining tavsiflovchi statistikasi

Shkalalar	Min	Max	Summa	O'rt.qiy mat	Std. Og'ish	Assimetriya	Eksess
Predmetli tafakkur	2,00	13,00	673,00	6,73	2,41	,492	-,177
Simvulli tafakkur	,00	15,00	680,00	6,80	2,42	,512	1,078
Belgili tafakkur	2,00	13,00	691,00	6,91	2,25	,265	-,020
Obrazli tafakkur	,00	10,00	660,00	6,60	2,15	-,714	,189
Kreativli tafakkur	2,00	12,00	673,00	6,73	2,20	,160	-,685

Kreativ tafakkurni baholash metodikasi bo'yicha minimal qiymat 4 ballni, maksimal qiymat 12 ballni tashkil etib, o'rtacha qiymat 7.69 ni, standart og'ish 1.69 ballni tashkil etdi.

4-jadval

1. Djeyn Staynning kreativ tafakkurni baholash testi metodikasining tavsiflovchi statistikasi

Metodika nomi	Min	Max	Summa	O'rt.qiy mat	Std. Og'ish	Assimetriya	Eksess
Kreativ tafakkurni baholash	4,00	12,00	769,00	7,69	1,64	,043	-,134



Sintetik uslub shkalasi bo'yicha minimal qiymat 22 ballni, maksimal qiymat 85 ballni tashkil etib, o'rtacha qiymat 56.31 ni, standart og'ish 13.25 ballni, g'oyaviy uslub shkalasi bo'yicha minimal qiymat 18 ballni, maksimal qiymat 88 ballni tashkil etib, o'rtacha qiymat 56.19 ni, standart og'ish 14.05 ballni, pragmatik tasavvur shkalasi bo'yicha minimal qiymat 18 ballni, maksimal qiymat 87 ballni tashkil etib, o'rtacha qiymat 56.02 ni, standart og'ish 14.21 ballni, analitik uslub shkalasi bo'yicha minimal qiymat 18 ballni, maksimal qiymat 84 ballni tashkil etib, o'rtacha qiymat 56.53 ni, standart og'ish 14.63 ballni, realistik uslub shkalasi bo'yicha minimal qiymat 18 ballni, maksimal qiymat 90 ballni tashkil etib, o'rtacha qiymat 56.63 ni, standart og'ish 16.07 ballni tashkil etdi.

5-jadval

Kreativ tafakkurining individual uslubi metodikasining tavsiflovchi statistikasi

Uslublar	Min	Max	Summa	O'rt.qiy mat	Std. Og'ish	Assimetriya	Eksess
Sintetik uslub	22,00	85,00	5631,00	56,31	13,25	-,407	-,028
G'oyaviy uslub	18,00	88,00	5619,00	56,19	14,05	-,449	,584
Pragmatik uslub	18,00	87,00	5602,00	56,02	14,21	-,625	,396
Analitik uslub	18,00	84,00	5653,00	56,53	14,63	-,575	,453
Realistik uslub	18,00	90,00	5663,00	56,63	16,07	-,457	,050

Yuqorida berilgan jadvallarni tahlil qilish orqali metodikalarni respondentlar tomonidan ishlash chog'ida ijtimoiy ma'qullanish javoblarining berilishi yoki izlanuvchining soxta ma'lumotlar kiritish orqali jadvallarga baho berish holatlari kuzatilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Navbatdagi tahlil esa, metodika natijalarini mos mezoniga solishga xizmat qiluvchi Kolmogorov-Smirnov mezonining tahliliga bag'ishlanadi.

6-jadval

Tafakkur va kreativlik testi metodikasining Kolmogorov-Smirnov mezoniga muvofiqligini tekshirish (n=100)

Shkala nomi	O'rt.qiyamat	Std. Og'ish	D	p
Predmetli tafakkur	6,7300	2,41148	1,489	,024*
Simvulli tafakkur	6,8000	2,42462	1,371	,047*
Belgili tafakkur	6,9100	2,25673	1,041	,229
Obrazli tafakkur	6,6000	2,15557	1,936	,001***
Kreativli tafakkur	6,7300	2,20126	1,240	,092

Izoh: *p≤0,05, ***p≤0,001

Tafakkur va kreativlik testi metodikasining Kolmogorov-Smirnov mezonini bo'yicha normal taqsimot qonuniga muvofiqligini tekshirish orqali olingan natijalar quyidagicha tus oldi: predmetli tafakkur shkalasi bo'yicha (D=1,489; p<0,05), simvulli tafakkur shkalasi bo'yicha (D=1,371; p<0,05), belgili tafakkur shkalasi bo'yicha (D=1,041; p>0,229), obrazli tafakkur shkalasi bo'yicha (D=1,936; p<0,001), kreativli tafakkur shkalasi bo'yicha (D=1,240; p>0,092) natijalar qayd etildi. Mazkur olingan natijalarning 50% i normal taqsimlanish qonuniga muvofiq parametrik mezonlarga, 50% i normal taqsimlanish qonuniga muvofiq noparametrik mezonlarga mos kelishi aniqlandi. Obrazli tafakkur shkalasi bo'yicha yuqori ballar o'smirlarda obrazli dunyoqarash, barcha narsani yaxlit, emotsional tonda ifodalash



yuqoriligi bildirsa, belgili tafakkur ko'rsatkichining pastligi ko'proq ularning kognitiv xususiyatlarida belgililikka emas balki konkretlikka moyillikning balandligi bilan ham ta'kidlanadi.

7-jadval

Kreativ tafakkurining individual uslubi metodikasining Styudentning- t mezoni bo'yicha jins tafovutlari tahlili

Metodika shkalalari	Jins	N=100	O'rt. qiymat	Std. Og'ish	t	Ishonch darajasi
Sintetik uslub	O'g'il bolalar	44	56,3864	11,74183	,052	,959
	Qiz bolalar	56	56,2500	14,44519		
G'oyaviy uslub	O'g'il bolalar	44	55,0227	14,35511	-,734	,465
	Qiz bolalar	56	57,1071	13,88220		
Pragmatik uslub	O'g'il bolalar	44	55,8864	15,09230	-,083	,934
	Qiz bolalar	56	56,1250	13,62359		
Analitik uslub	O'g'il bolalar	44	56,3636	14,67333	-,100	,920
	Qiz bolalar	56	56,6607	14,73681		
Realistik uslub	O'g'il bolalar	44	54,7273	17,02579	-1,049	,297
	Qiz bolalar	56	58,1250	15,28286		

Kreativ tafakkurining individual uslubi metodikasining Styudentning- t mezoni bo'yicha jins tafovutlari tahliliga ko'ra, sintetik uslub ko'rsatkichida ishonchli farqlar kuzatilmadi ($t=0,052$, $p<0,959$). Qizlarda o'rtacha qiymat 56,25 ni, o'g'il bolalarda 56,38 ni, pragmatik uslub ko'rsatkichida ishonchli farqlar kuzatilmadi ($t=-0,734$, $p<0,465$). Qizlarda o'rtacha qiymat 57,10 ni, o'g'il bolalarda 55,02 ni tashkil etib, analitik uslub ko'rsatkichida ishonchli farqlar kuzatilmadi ($t=-0,100$, $p<0,920$). Qizlarda o'rtacha qiymat 56,66 ni, o'g'il bolalarda 56,36 ni tashkil etib, realistik uslub ko'rsatkichida ishonchli farqlar kuzatilmadi ($t=-1,049$, $p<0,297$). Qizlarda o'rtacha qiymat 58,12 ni, o'g'il bolalarda 54,72 ni tashkil etib, bundan qizlar bilan o'g'il bolalarda tafakkur tarzining o'xshashligi o'quv faoliyati bitta va yosh davrining bir xil ko'rsatkichida ekanligi sababli ham ahamiyatli tafovutlar mavjud emasligiga ishora qiladi. Olingan barcha shkalalar bo'yicha natijalar tahlilidan tafakkur uslublarining qizlar va o'g'il bolalarda shakllanib rivojlanish dinamikasi o'xshashdir kabi xulosalar qilinadi.

XULOSA (CONCLUSION).

Bolaning shaxsiyatini rivojlantirish jarayoni asosan "madaniyatga kirib borish" jarayoni bo'lib, uning xususiyatlari o'smirlarning ijodiy faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Intellektual rivojlanishning ustunligi-nazariy aks ettiruvchi tafakkurning rivojlanishi muammolarni izlashda xushyorlik va fikrlashning moslashuvchanligi, tajribani uzatish qobiliyati, tushunchalarni yaqinlashtirish kabi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning ushbu bosqichida alohida muvaffaqiyatni belgilaydi. Ushbu yoshdagi tasavvur rivojlanishning yangi darajasiga ko'tariladi, endi u bolalikka qaraganda samaraliroq xarakterga ega, ammo shunga qaramay, ko'pincha u "samimiy sohaga" kiradi va fikrlashning subyektiv shakliga aylanadi. Buni yengib o'tish, uning mahsuldorligiga intilish yo'lida tasavvurni rivojlantirish yo'nalishi - bu o'smirning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosini hal qiluvchi psixologik vazifalaridan biridir.



Ushbu yoshdagi yetakchi faoliyatning turi - bu o'smirning individual ijodining tabiatini, ijodning natijaga yo'nalishini belgilaydigan samimiy va shaxsiy aloqa sanaladi. Shu yoshda yuzaga keladigan va ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishiga ta'sir qiladigan qarama-qarshiliklardan o'smirlarning ijtimoiy taqlidga bo'lgan istagi va shu bilan birga, xohish - istagi tengdoshlar guruhidan ajralib turadi. Ushbu qarama-qarshilikning oqibatlari o'smirlarning ijodiy faoliyati samaradorligini pasaytiradi.

Umuman olganda, o'smirlik ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ko'p jihatdan qulaydir, ammo bu borada bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda, ijodiy qobiliyat eng muvaffaqiyatli rivojlanadigan yo'llar va sharoitlarni ko'rib chiqish mumkinligi isbotlandi.

References:

2. Ушаков Д. В. Социальный интеллект как вид интеллекта (рус.) // Институт психологии РАН. — 2004
3. Князева Н. Н. Изучение социального интеллекта у школьников и студентов // Юбилейная международная научно-практич. конф. , посвященная 200-летию Д. П. Ознобишина. Самара, 2004.
4. И. В Носко Психология развития и возрастная психология Владивасток 2003
5. Психология. Книга 2. Психология образования / Р. С. Немов — «ВЛАДОС», 2007
6. Тойирова Ш. И. , Тойирова Л. И. Психологическая роль геронтологии в республике Узбекистан //Инклюзивное образование и психолого-педагогическое сопровождение лиц с ОВЗ и инвалидов: от раннего возраста до профессиональной подготовки. Региональные практики и модели. – 2020. – С. 202-205.
7. Тойирова Ш. Ўзбек оилаларда эгизак фарзандларни тарбиялашдаги ўзига хос психологик муаммолар //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. I (2). – С. 122- 125.
8. Ismatova D. T. et al. OILADAGI AJRIMLAR PSIXOLOGIK MUAMMOSI SIFATIDA //Oriental Art and Culture. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 184-190
9. Тойирова Л. И. , Тойирова Ш. И. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПОДРОСТКОВ-БЛИЗНЕЦОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ В ШКОЛЕ //негізі» атты халықаралық білім беру онлайнконференциясының материалдары. – 2019. – С. 113.
10. Тойирова Л. , Ульмасова Д. НАВЫКИ ТРЕНЕРА И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ВОПРОСЫ КАК ВЛИЯНИЕ НА ПРОЦЕСС ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ // Свет ислама. - 2020. - Т. 2020. - №. 1. - С. 152-158 "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021 ISSN 2181-063X 558 <http://oac.dsmi-qf.uz/>
11. Izatovna T. L. , Izatovna T. S. PSYCHODIAGNOSTIC BASES OF THE STUDY OF TWINS IN PSYCHOLOGY //E-Conference Globe. – 2021. – С. 98-104.
12. Izatovna T. S. THE INFLUENCE OF PSYCHOGENETIC FACTORS ON THE UPBRINGING OF TWINS IN UZBEK FAMILIES //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 297-303.
13. Izatovna T. L. INFLUENCE OF HUMAN FACTORS ON THE UPBRINGING OF BLIZNETS IN UZBEK FAMILIES IN THE PROCESS OF TRAINING //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 286-292.



14. Тойирова Л. Эгизаклар ривожланиш босқичларидаги ўзига хос психологик хусусиятлар //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. I (2). – С. 126-130.
15. Izatovna T. S. PSYCHOLOGICAL APPROACHES OF PARENTS IN THE UPBRINGING OF TWINS IN UZBEK FAMILIES //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 82-87.
16. Izatovna T. L. , Izatovna T. S. PSYCHODIAGNOSTIC BASES OF THE STUDY OF TWINS IN PSYCHOLOGY //E-Conference Globe. – 2021. – С. 98-104.